



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

ANALYSIS AND CLASSIFICATION OF MODERN OUTERWEAR ASSORTMENTS

Boymatova Kamola Abduraxmon qizi

Associate Professor, Namangan State Technical University

Xamraxo'jayev Baxtiyor Yaxyoxonivich

Senior Lecturer, Namangan State Technical University

G'aniyeva Xusnida Xasamboy qizi

First-Year Student, Namangan State Technical University

Abstract

This research study analyzed the modern assortment of outerwear, its structural and aesthetic characteristics, and trends in its formation in accordance with consumer demands. During the study, the role of clothing in material and spiritual culture, the pace of development of the global clothing industry, and the increasing demand for outerwear as a result of increased consumption were scientifically substantiated.

Keywords

Outerwear, clothing industry, assortment, classification, jacket, sweatshirt, sweatshirt, jacket, constructive solution, style, fabric properties, physical and mechanical characteristics, ergonomics, comfort, aesthetic appearance.

ZAMONAVIY USTKI KIYIMLAR ASSORTIMENTLARINING TAHLILI VA KLASSIFIKATSIYALASH

Boymatova Kamola Abduraxmon qizi

Namangan Davlat texnika universiteti dotsenti

Xamraxo'jayev Baxtiyor Yaxyoxonivich

Namangan Davlat texnika universiteti katta o'qtuvchisi

G'aniyeva Xusnida Xasamboy qizi.



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

Namangan Davlat texnika universiteti 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida ustki kiyimlarning zamonaviy assortimentlari, ularning konstruktiv va estetik xususiyatlari hamda iste'molchilar talablariga mos ravishda shakllanish tendensiyalari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida kiyimning moddiy va ma'naviy madaniyatdagi o'rni, jahon kiyim-kechak sanoatining rivojlanish sur'atlari hamda iste'mol hajmining ortishi natijasida ustki kiyimlarga bo'lgan talabning oshib borishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Kalit so'zlar: Ustki kiyim, kiyim-kechak sanoati, assortiment, klassifikatsiya, jaket, nimcha, tolstovka, kurtka, konstruktiv yechim, bichim, mato xossalari, fizik-mexanik ko'rsatkichlar, ergonomika, komfortlik, estetik ko'rinish.

Kiyim – moddiy va ma'naviy madaniyatning muhim elementlaridan biri bo'lib, biz ko'rib chiqqan misollar bilan tasdiqlangan kiyimning kontseptual zonasi keng, nomlari ko'p, xilma-xil va funksional jihatdan to'yingan va bularning barchasi shunday imkoniyatdan dalolat beradi. So'nggi 15 yil ichida sanoatning rivojlanishi natijasida, mavsum davomida bir dona kiyim kiygan odamlar soni 30% ga kamaydi[3]. Kiyim-kechak iste'molining oshishi 2005 yilda 34,5 milliard dollar, o'rtacha yillik 3,7% ni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 55,5 milliard dollarni tashkil etgan va 2020-yilga kelib kiyim-kechak sanoati, jahon miqyosida qiymati 1,5 trillion dollarlik yirik sanoat bo'lib, bu ko'rsatkich yengil avtomobillar ishlab chiqarishidan ham yuqoriroqdir[4].

Shuningdek tikuvchilik sanoatida so'ngi yillarda sifati, qulayligi va mosligiga ko'proq e'tibor berilmoqda. Ustki kiyimlar uchun eng muhim xususiyatlar bu uning chidamliligi, uzoq muddatga yaroqliligi, estetik ko'rinish va qulayligi shuningdek rangi



**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

va mato tuzilishi kiyimning dizayni va estetik ko'rinishiga ta'sir qiladi. Kiyimning eng muhim parametridan biri kamfortligidir.

Har bir istemolchi o'zining garderobida bir necha turdagi ustki kiyimlari mavjud bo'lib, garderobdagi eng qimmat buyumlardan biridir. Shuning uchun ustki kiyimlar bir mavsumda ko'proq vaqt davomida xizmat qilishi kerak. Buning uchun esa, avvalo kiyimni qanday tanlashni bilish kerak, ustki kiyimlarni xarid qilganimizda uning matosini sifatiga, fizik-mexanik xususiyatiga, eng asosiysi qulayligiga ahamyat berishimiz lozimdir. Agar palto, plash, kardigan va shunga o'xshash uzun ustki kiyimlar tanlash kerak bo'lsa, ularni imkon qadar boldir qismiga tushadiganini olish tavsiya etiladi. Bunday uzunlikdagi ustki kiyimlar yubka, ko'ylak, shim yoki boshqa kombinatsiya bilan ham ajoyib ko'rinishni hosil qiladi. (1.1-jadvalda va 1.1- ilovada) batafsil keltirilgan.

1.1-jadval:

T/r	Ustki kiyim ko'rinishi	Nomlanishi	Ustki kiyim harakteristikasi	Mato turi	Bichimi
1		Jaket	Erkaklar jaketi kalta bichimda yengil jinsi ko'ylagi qisqartirilgan uslub bo'lib, etaklari belidan biroz yuqoriroqda. Asosan kuz va bahor oylarida kiyish uchun mo'ljallangan.	Jensiviy	


**"ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI" nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi**
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026

2		Nimcha	Erkaklar nimchasi to'g'ri bichimda bo'lib qish, bahor, kuz mavsumga mo'ljallangan. Nimcha yoqasi ko'tarma, old bord qismi molniya taqilmalik, yangi yuq bichimda.	Plashopka	
3		Talstovka	Sport uslubidagi erkaklar ustki kiyimi matosi trikotaj bichimi to'g'ri bichimda, yangi o'tqazma yeng, yoqasi tik yoqa, old bord qismi ichki zamok, ustki qismida knopka bilan biriktirilgan, yeng va etak qismi manjet o'rnatilgan.	Trikotaj	
4		Yengil kurtka	Kuz va bahor mavsumiga mo'ljallangan yengil ustki kiyim. Plashopka matosidan bo'lib yeng qismi reglan, yoqasi tik yoqa, old bort qismida molniya taqilmasi bilan biriktirilgan.	Plashopka	

**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

5		Yengil kurtka	Mavsumiy ustki kiyim bo‘lib to‘g‘ri bichimda yeng qismi o‘tqazma, yoqa qismi kopyushon, old bord qismi molniya taqilma bilan biriktirilgan	Plashopka	
---	---	---------------	--	-----------	---

Ustki kiyim tanlashda rang alohida ahamiyatga ega. Keyingi mavsumda qanday rang urfda bo‘lishi mavhum masala. Shuning uchun ularni neytral rangda bo‘lishi maqsadga muvofiq. Oq, qora, qaymoq rang, kul rang, jigarrang yoki to‘q ko‘k kabi qalin ustki kiyimlar uzoq muddat davomida ko‘zga tashlanmaydi bu albatta har bir istemolchi uchun qulaydir. Keng yoqalar, burmali bezaklar va turli xil bichimdagi ustki kiyimlarga ham kamroq etibor berish kerak. Chunki mavsum mobaynida turli xil uslublar urfga kiradi. Klassik uslublar esa hamisha tendensiyaga muvofiq ravishda o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Izlanishlar davomida bu masalada ko‘proq oddiy bichimdagi klassik ustki kiyimlarni tavsiya etadi. Shuningdek ustki kiyimlar bir necha turga bo‘linadi, palto, kalta palto, plash, jaket, pidjak, kurtka. (1-rasm)





1-rasm. Ustki kiyimlarni assortimentlari

Xulosa : Olib borilgan ilmiy tadqiqot tahlillari natijasida ustki kiyimlarni tuzilishi, tashqi ko‘rinishi va guruhlariga bo‘linishi bo‘yicha ustki kiyimlarning klassifikatsiyasi ishlab chiqildi. Bunday ustki kiyimlar klassifikatsiyasi kelajakda chok mustahkamligi yuqori bo‘lgan turli xil assortimentdagi ustki kiyimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.A.Boymatova “Ustki kiyimlarni tikish jarayonida chok mustahkamligini oshirish tadqiqi” dissertasiya 2026.
2. Yasemin Bulut & Vildan Sular (2012) Manufacturing and Sewing Performance of Polyurethane and Polyurethane/Silicone Coated Fabrics, Materials and Manufacturing Processes, 28:1, 106-111, DOI: [10.1080/10426914.2012.700148](https://doi.org/10.1080/10426914.2012.700148)
3. [Vedat DAL](#), [Merve Ertinmaz Yargici](#), [Serdar Salman](#), Analyzing the effects of sewing machine needle coating materials on the Needle’s heating during sewing, tekstil ve konfeksiyon 24(4), 2014 393
4. Bobovcan marcelic, rogale, d, dragcevic, z, annals of daaam for 2012 & proceedings of the 23rd international daaam symposium, volume 23, no.1, issn 2304-1382